



## MUNDARIJA

### 07.00.00 - "TARIX"

<b>Наврузов Сапарбай.</b> Хива рус босқини арафасида.....	9
<b>Матякубов Шоназар Собирович.</b> Огаҳийнинг “Гулшани давлат” тарихий асарида Сайид Муҳаммадхон хонлик даври воқеалари тафсилотлари.....	21
<b>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich.</b> Sug’orish tizimi tarixi haqida qaydlar (Yahyo G’ulomovning “Xorazmning sug’orilish tarixi” asari misolida)....	38
<b>Омонов Анварбек Муродович.</b> Селунгур ғор макони палеофаунаси тарихига доир.....	93
<b>Jumayeva Shoxida Choriyevna.</b> Chorvachilik va qishloq aholisining ijtimoiy hayoti: muammolar va istiqbollar.....	103
<b>Matyakubova Shahodat Xamidjanovna.</b> Quiy Amudaryo hududida ilk o’rta asr sug’orilish tarmoqlari tarixiga doir ba’zi mulohazalar.....	115
<b>Rajabova Zilola Kahramon qizi.</b> XIX asrda O’rta Osiyoda aloqa tizimining shakllanishi va rivojlanish tarixi.....	118
<b>Tishabayev Alisher Maxamatdjanovich.</b> O’zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sport moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi(1991-2019).....	124
<b>Begaliyev Javlonbek Rayimnazarovich.</b> O’zbekistonda mualliflik huquqlarini himoya qilish borasidagi muammolar tarixi (1970-1990-yillar misolida).....	158
<b>Исмоилова Парвина Хамиджон кизи.</b> Русские банки в туркестане: возникновение и последствия в конце XIX - начале XX века.....	204
<b>Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o’g’li.</b> Xorazm vohasida ilk urbanistik jarayonlarning tadqiqotlari muammolar.....	233
<b>Usmanova Inobat Ibragimovna.</b> Janubiy orolbo’yi havzasida bronza davridagi turar joylarining arxeologik tadqiqotlari.....	245
<b>Raxmatov Murod G’aybullayevich.</b> XX asr boshlarida turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining g’oyaviy va nazariy qarashlari.....	248
<b>Teshayeva Yulduz Hakim qizi.</b> Ayollarning ilm-fandagi rolini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar.....	271
<b>Allamuratov Shuxrat Ashurovich.</b> Termizning Amudaryo orqali savdo aloqaları (XIX asrning oxiri - XX asrning boshları).....	275
<b>Xo’janazarov Absalom Ziyadullayevich.</b> Surxondaryo viloyatida koronavirus pandemiyasi oqibatlarini bartaraf etish bilan bog’liq ishlar.....	279
<b>Saparbayev Bunyodbek Xurrambek o’g’li.</b> Tarixchi Munis va Ogahiylarning “Firdavs ul-iqbol” asarining Xiva xoni Muhammad Rahimxon I davrida (1806-1825) Xiva xonligi va Rossiya munosabatlarini tadqiq qilishdagi ahamiyati.....	316
<b>Atajanov G’ulomjon Urinboyevich.</b> Sayfiddin Qutuz tarixining yangi sahifalari.....	324
<b>Матёкубов Алишер.</b> XX асрнинг 20-йиллари биринчи ярмида Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жаҳёнларнинг баъзи масалалари.....	343
<b>Джуманиязова Фируза Джуманазаровна.</b> Активное участие женщин Хорезма в оказании помощи фронту.....	352
<b>Бабожонов Дилмурод Комилович.</b> Хива “Ичан-қалъа” давлат тарихий-меъморий музей қўриқхонасининг фаолияти.....	356

### 09.00.00 - "FALSAFA"

<b>To’xtasinov Ro’zimuhammad Nurmuhammad o’g’li.</b> Ibn Sinoning “Ixlos” surasi tafsiridagi falsafiy qarashlari tahlili.....	15
<b>Tursinkulov Nurali Anarbayevich.</b> Islom va erkinlik: falsafiy va amalii jihatlar.....	42
<b>Samadov Jonmurod.</b> Jaloliddin Rumiyning gnoseologik qarashlari.....	52
<b>Madaminzoda Abdulatif Baxtiyor o’g’li.</b> Abul Muin Nasafiyning olam haqidagi falsafiy qarashlari.....	80
<b>Jo’rayev Ahmad Muhammadiyevich.</b> Tinchlikparvarlik axloqiy tamoyili va uning O’zbekiston tashqi siyosatidagi o’rni.....	83
<b>Akmal Ahmedovich Axmedov.</b> Iste’molchi axloqining ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri.....	106
<b>Ne’matova Orzigul Axmedovna.</b> “Husni-xulq”ning tarixiy-nazariy va falsafiy talqini.....	169
<b>Raximov Xolmurod Majitovich.</b> Islom tasavvufida “tajalliy” tushunchasi.....	183
<b>Uzoqova Lola Abdurashitovna.</b> Alisher Navoiy ma’naviy merosida axloq prinsiplarini ifodalanishi.....	189
<b>Begaliyev Jo’rabek Toshbekovich.</b> “Osor al-boqiya” asarida antropologik masalalar tahlili.....	211
<b>Axmedova Ma’rifat Abdullayevna.</b> Ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.....	215
<b>Joldasbayev Oralbay Yernazarovich.</b> Berdaq ilmiy merosida jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlar tahlili.....	237
<b>Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich.</b> Yangi O’zbekistonning yoshlarida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish davr talabi.....	253
<b>Norliyev Rustam Ibragimovich.</b> Shaxs bioijtimoiy xususiyatlarni rivojlantirishning dialektik jihatlari.....	283
<b>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich.</b> Ma’naviy marginallashuvning falsafiy jihatlari.....	286
<b>Arolova Zarina Lochin qizi.</b> Ekologik xavfsizlikni ta’minlashda barqaror rivojlanish tendensiyalari.....	289
<b>Safarov Akbar Isakulovich.</b> Globallashuv sharoitida ekologik ongning transformatsiyasi va jamiyatdagi roli.....	292
<b>Axatov Lutfillo Karamatilloyevich.</b> Tasavvuf mohiyatining tazkiralarda namoyon bo’lishi.....	296
<b>Maxmudov Feruz Tulkinovich.</b> Yangi O’zbekistonda mahalla instituti faoliyati va uning istiqbollari.....	313
<b>Turabova Sevara Kattaqulovna.</b> Yusuf Xos Hojibning siyosiy falsafasi “uchinchli renessans” konsepsiysi talqinida.....	331
<b>Xandalova Ma’rifat Akramovna, Jantayev Maqsud Ibragimovich.</b> Al-Xorazmiyning “Kitob surat al-arz” asaridagi geografik va ontologik qarashlar.....	334
<b>Isroilov Bektosh Erkinovich.</b> Vorisiylikka innovatsion yondashuvning ijtimoiy-falsafiy masalalari.....	359

## O'ZBEKİSTONDA MUALLİFLİK HUQUQLARINI HİMOYA QİLİŞ BORASIDAGI MUAMMOLAR TARIXI (1970-1990-YILLAR MISOLIDA)

*Begaliyev Javlonbek Rayimnazarovich, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti v.b, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

### ИСТОРИЯ ПРОБЛЕМ С ЗАЩИТОЙ АВТОРСКИХ ПРАВ В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ 1970-1990 ГОДОВ)

*Бегалиев Жавлонбек Райимназарович, и.о. доцента  
Ташкентского института экономики и педагогики, (PhD)*

### HISTORY OF PROBLEMS OF COPYRIGHT PROTECTION IN UZBEKISTAN (1970-1990S ON THE EXAMPLE)

*Begaliev Javlonbek Rayimnazarovich, Tashkent Institute of  
Economics and Pedagogy Acting Associate Professor, (PhD)*



[https://orcid.org/0009-0000-  
8080-2932](https://orcid.org/0009-0000-8080-2932)  
e-mail:  
[javlonbek.begaliyev@gmail.  
com](mailto:javlonbek.begaliyev@gmail.com)

**Annotasiya:** Maqolada aniq tarixiy misollar yordamida

O'zbekiston SSRda, xususan, Butunittifoq mualliflik huquqini himoya qilish boshqarmasining O'zbekiston bo'limida mualliflik huquqini himoya qilish muammolari bilan bog'liq sabab va oqibatlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, 1970-1990-yillarda O'zbekistonda mualliflik huquqini himoya qilish muammolarini chuqur tahlil qilish asosida ilmiy xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** mualliflik huquqi, intellektual mulk, ijodiy faoliyat, mualliflik haqi, vakillik, teatr, spektakl, Yozuvchilar uyushmasi, nashriyot shartnomasi.

**Abstract:** The article examines the causes and consequences of copyright protection problems in the Uzbek SSR, in particular, in the Uzbek branch of the All-Union Copyright Protection Department, using specific historical examples. Also, based on a thorough analysis of the problems of copyright protection in Uzbekistan in the 1970s-1990s, substantiated scientific conclusions are presented.

**Keywords:** copyright, intellectual property, creative activity, copyright, representation, theater, performance, Writers' Union, publishing agreement.

**Аннотация:** В статье на конкретных исторических примерах рассматриваются причины и последствия проблем в сфере охраны авторских прав в Узбекской ССР, в частности, в Узбекском отделении Всесоюзного управления по охране авторских прав. Также на основе глубокого анализа проблем охраны авторских прав в Узбекистане в 1970-1990-е годы представлены обоснованные научные выводы.

**Ключевые слова:** авторское право, интеллектуальная собственность, творческая деятельность, авторское право, представительство, театр, спектакль, Союз писателей, издательский договор.

**KIRISH.** Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida mualliflarning ilm-fan, adabiyot va san'at sohalaridagi asarlariga bo'lgan huquqlarini himoya qilish har qachongidan-da ko'proq dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu

sohaning rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri mualliflarning intellektual faoliyati natijalariga bo'lgan mutlaq huquqlarini tan olishdir. Muallif yaratgan ijodiy faoliyat natijalarini huquqiy tan olish va himoya qilinishi, shuningdek unga ushbu

asarlardan foydalanish, tasarruf etish va undan daromad olish huquqlarini ta'minlash intellektual faoliyat natijalaridan jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish uchun sharoit yaratadi.

O'zbekistonda ham mualliflarning intellektual faoliyati natijalarini himoya qilish bilan bog'liq huquqiy asoslarni yaratish jarayonlari mustaqillikning dastlabki yillarda ham davom ettirildi. Mualliflik huquqini himoya qilish borasida tizimli jarayonlar bugungi kunda ham jadallik bilan amalga oshirilayotganligini Prezident Sh.M.Mirziyoyev "Intellektual mulk masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarmas ekanmiz, O'zbekiston bundan o'n yildan keyin ham raqobatdosh bo'lmaydi"[1] deb ta'kidladi.

Mamlakatimizda Intellektual mulknini himoya qilish dolzarb ekanligi inobatga olinib, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 53-moddasida: "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi"[2] deb belgilanganligi ham mualliflar huquqlarini asosiy qonun bilan ham himoyalanishini asoslab berdi.

Mualliflik huquqi o'zining tarixiy davrida jamiyatning o'zgarishi bilan rivojlanib boradi[3]. Shunday ekan, mamlakatimizning bugungi kundagi mualliflik huquqlarini himoya qilish borasidagi tajribalari uzoq yillik tarixga borib taqaladi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYASI.** Mustaqillik davrida yaratilgan B.Toshev, I.I.Nasriyev, O.Oqyulov, I.B.Zokirov, G.A.Xudayberdiyeva va boshqa ko'pgina olimlarning tadqiqotlarida mamlakatimizda mualliflik huquqining huquqiy asoslari va normalari, asar mualliflarining huquqlarini ta'minlash kabi holatlarga doir ayrim ma'lumotlar keltirib o'tilgan[4]. Ularda asosan mamlakatimizda mualliflik huquqining huquqiy jihatlariga e'tibor berilgan.

**MUHOKAMA.** Mamlakatimizda mualliflar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari yaratilishi XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Ammo, ushbu bir asrlik tajribalar ko'plab muammoli holatlar natijasida to'plangan bo'lib, ushbu muammolarni markazda faoliyat olib borgan Butunittifoq mualliflar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi (BMHHB) hamda uning topshiriq va

ko'rsatmalari asosida ishlagan O'zbekiston bo'limi hujjalari orqali bilishimiz mumkin.

Sovet hokimiyatining ayrim puxta o'ylanmasdan amalga oshirgan siyosati boshqa sohalar bilan bir qatorda, mualliflik huquqini himoya qilish sohasiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Sovet Ittifoqining tashkil etilganligining 50 yilligini munosib kutib olish maqsadida BMHHB O'zbekiston bo'limi va Qozog'iston bo'limlari o'rtasida sotsialistik musobaqa tashkil etilib, musobaqa shartlari sifatida:

a) 1972-yilda barcha ko'rsatkichlar bo'yicha to'lovlardan rejasini amalga oshirishga erishish; b) jadval bo'yicha hisobga olingan barcha tomosha ko'rsatuvchi muassasalarga 100% xizmat ko'rsatish; c) tomosha ko'rsatuvchi muassasada to'lovchilarning balans ma'lumotlari bo'yicha ilgari kiritilgan hisob-kitoblarni jadvalga muvofiq qayta tekshirish; d) komissarlarning kamida 1/3 qismi ish faoliyatini tekshirishni tashkil qilish; e) 1973-yil 2-yarim yillikda filialning vakolatli vakillaridan kelgan hisobotlarning umumiy sonining kamida 90% oldindan ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlash [5] belgilangan.

Mualliflar huquqlarini taminlashda tomosha ko'rsatuvchi muassasalarni dasturlarni oldindan ro'yxatga o'tkazmasligi oqibatida 1972-yil 1-maydan 1-sentabrgacha bo'lgan davrda ikkita orkestr tomonidan ijob etilgan musiqa noaniq bo'lib, bu rahbarlar konsert va boshqa qo'shma dasturlarni oldindan ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi hukumat ko'rsatmalariga mutlaqo e'tibor bermay, musiqa va matn mualliflariga to'lanadigan gonorarni o'z vaqtida to'lashga to'sqinlik qilib kelgan[7].

Komissar D.P.Ryasnyanskiy mualliflik huquqini himoya qilish tizimida uzoq yillardan beri xizmat qilib, ushbu tizimda milliy kadrlarni yaratish va o'sishiga xizmat qilgan[8]. Yuqoridaqgi xizmatlarini inobatga olib, O'zbekiston bo'limi katta inspektor M.Kushnirovich Sovet ittifoqining tashkil etilganligining 50 yilligi munosabati bilan komissar D.P.Ryasnyanskiya "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvonini berish to'g'risida davlat organlari oldida masala qo'yishni mumkin va maqsadga muvofiq bo'lardi, deb takidlagan[9]. Ammo bu taklifning amalga oshgan yoki oshmag'anligi arxiv hujjalarda keltirilmagan bo'lib, taklif sovet hokimiyati davlat organlaridan va BMHHBdan chiqmaganidan xulosa

qilish mumkinki, bu unvon mahalliy komissar D.P.Ryasnyanskiyga berilmagan.

O'zbekiston bo'limining faoliyatida yuzaga kelgan kamchilliklar ham mavjud bo'lib, eng katta kamchillik mualliflik qalam haqlarini mualliflar hisoblariga tarqatishning kechikishidir. Bunga yuqorida nomi keltirilgan "Ishq bilan o'ynashma" asari uchun muallif haqini ololmagan Mulla Karimni keltirish mumkin. Bundan tashqari "Boy va xizmatchi" filmi senariy muallifi Fayziyev mualliflik haqining 5000 rubli to'langan bo'lib, qolgan qismi to'lanmagan. [13].

Mualliflik haqlarining kechikishi va to'liq to'lanmaslik holatlari qonunga xilof hisoblanib, bu mualliflik huquqlarini himoya qilish tizimida huquqiy asoslar yetarli darajada bo'lishiga qaramasdan, amalda qo'llashda muammolar borligini ko'rsatgan va mualliflarning o'rinni e'tirozlariga sabab bo'lgan.

Yana bir katta nuqson, aniqlanmagan qalam haqining katta summada mavjudligi bo'lib, ushbu holatni hal etishda qat'iy choralar ko'rish va haqiqiy mualliflarni topish hamda ushbu summalarini minimumga olib kelish zarurati tug'ilgan[14].

Ushbu yuqorida ta'kidlab o'tilgan takliflar amalda hayotga to'liq tatbiq etilgan taqdirdagina, respublikamiz mualliflarining haq-huquqlari to'la qonuniy yo'l bilan himoya qilingan bo'lar edi. Ammo, mustaqillikka erishilgan dastlabki yillarda mualliflik huquqlarining himoya qilinishi bilan bog'liq qonunlar qabul qilinganiga qadar mualliflar huquqlari yetarli darajada ta'minlanmagan.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni alohida takidlab o'tish kerakki, Sovet davlatidagi qonunlar o'zining mohiyatiga ko'ra markaz manfaatlariga moslashgan bo'lib, Butunittifoq mualliflar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi va keyinchalik Butunittifoq mualliflik huquqi agentligi orqali mualliflarning asarlari mazmunida sovet mafkurasining singdirilishi kabi talablarning mavjudligi, Ittifoq tarkibidagi chekka o'lkalardagi mualliflarning manfaatlari yetarli darajada inobatga olinmaslik holatlarining borligi, mualliflar huquqlarini ta'minlashdagi muammoli holatlar sifatida keltirish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda so'zlagan nutqidan. 12-oktyabr 2020-yil. <https://daryo.uz/2020/10/13/shavkat-mirziyoyev-agar-intellektual-mulk-masalasini-davlat-siyosati-darajasiga-kotarmasak-ozbekiston-10-yildan-keyin-ham-raqobatdosh-bolmaydi>.
2. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil), 53-moddasi.
3. Toshev B. Mualliflik huquqi. – Toshkent: O'zbekiston, Abdulla Qodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1997. -3-b.
4. Begaliyev J.R. Sovet davrida O'zbekistonda mualliflik huquqi tarixi (1917-1991 yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. Termiz, 2023. 3-bet.
5. O'zMA, R 2432-fond, 3-ro'yxat, 72-ish, 1-varaq.
6. O'zMA, R 2432-fond, 3-ro'yxat, 73-ish, 3-varaq.
7. O'zMA, R 2432-fond, 3-ro'yxat, 73-ish, 4-varaq.
8. O'zMA, R 2432-fond, 3-ro'yxat, 73-ish, 10-varaq.
9. O'zMA, R 2432-fond, 3-ro'yxat, 73-ish, 10-varaq.
10. O'zMA, R 2798-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 118-varaq.
11. O'zMA, R 2798-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 12-varaq.
12. Гаврилов Э.П. Советское право, издательские договоры, авторский гонорар. – Издательство Юридическая литература. — Москва. 1988. - С.51.
13. O'zMA, R 2432-fond, 1-ro'yxat, 74-ish, 42-varaq.
14. O'zMA, R 2432-fond, 1-ro'yxat, 9-ish, 7-A-varaq.
15. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 15-сон, 10.04.1992.
16. Тошев Б. Муаллифлик хукуки. – Ўзбекистон. Ташкент: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1997. -Б. 5.
17. Rayimnazarovich, B.J. (2021). History of Copyright in Uzbekistan Some Considerations Related to (On the Example of the 1950s). *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1, 29-32.